| REDUCTION OF GREENHOUSE GAS EMISSIONS: EMISSION QUOTAS OR MANDATORY CONTROL TECHNOLOGIES .....                                                                     | 633 |
| <b>Bobonov Doston Abdumo'min o'g'li, Qozoqboyev Jasur Abduvali o'g'li</b>                                                                                          |     |
| AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....                                                     | 637 |
| <b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>                                                                                                                              |     |
| ПОЛУЧЕНИЕ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОГО ЦЕМЕНТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ.....                                                                       | 643 |
| <b>Арипова Мастура Хикматовна, Ташбаев Джахангир Назим угли</b>                                                                                                    |     |
| МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ГОРЕЛОК И ИССЛЕДОВАНИЕ ИХ ТЕПЛОВОЙ НАГРУЗКИ .....                                                                                       | 652 |
| <b>Ражабов Азамат Тоирович</b>                                                                                                                                     |     |
| QISHLOQ XO'JALIK TEXNIKALARI MARKETINGI VA UNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....                                                                                 | 658 |
| <b>Xolmirzayev Bobur Mansurovich</b>                                                                                                                               |     |
| ПРИМЕНЕНИЕ СУБСИДИАРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ АНКРОТСТВА: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ВОЗМОЖНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....                               | 663 |
| <b>Хамзина Динара Рашатовна</b>                                                                                                                                    |     |
| YASHIL REKREATSION TURIZM KONSEPSIYASINI JORIY ETISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI.....                                                                               | 669 |
| <b>Baxriyeva Zarina Nasimovna</b>                                                                                                                                  |     |
| KORXONALARDA DIVERSIFIKATSIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA IQTISODIY MEKANIZMLARINING O'RNI .....                                                                   | 672 |
| <b>Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich</b>                                                                                       |     |
| QALINLIGI 2 MM BO'LGAN TASMALI LISTLARNI SOVUQ HOLATDA PROKATLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH .....                                                       | 679 |
| <b>Yusupov Abdulaziz Abdullajanovich, Saydumarov Botir Muradovich, Arslonov Asadbek G'aybulla o'g'li</b>                                                           |     |
| HUDUDIIY TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI MUHANDISLIK INSHOOTLARI KOMPLEKSINI LOYIHALASH VA QURISH JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH.....                               | 682 |
| <b>Zikrayev Akmaljon Alimovich</b>                                                                                                                                 |     |
| TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLARNI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                                                   | 688 |
| <b>Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi</b>                                                                                                                |     |
| "MIKROSIMULYATSION MODELLAR" VA ULAR YORDAMIDA IQTISODIY SIYOSATGA OID QARORLARNING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA TA'SIRINI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....               | 694 |
| <b>Mualliflar Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Raxmonov Doniyor Ixtiyorjon o'g'li, Ortiqova Niginabonu Alisher qizi, Raxmonov Jo'rabek Hamroyevich</b>              |     |
| MINTAQADA SANOAT KORXONALARI TUZILMAVIY KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA TAMOIYILLARI.....                                                                                 | 702 |
| <b>Jabborov Elbek Erkin o'g'li</b>                                                                                                                                 |     |
| MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA TARTIBGA SOLISH .....                                                                                                                  | 707 |
| <b>Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich</b>                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| SMART SOATLAR YORDAMIDA BEMORLAR SALOMATLIGINI NAZORAT QILISH.....                                                   | 712 |
| Alimqulov Nurmuhammad Muqumjon o'g'li, Eraliyev Humoyun Ma'mirjon o'g'li, Madaminova Mahliyo Bahodirjon qizi         |     |
| PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI .....                                              | 718 |
| Sherjonov Doniyor Sapparbayevich                                                                                     |     |
| TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH IMKONIYATLARINI<br>BAHOLASH.....                                 | 722 |
| Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich                                                                                          |     |
| MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING AHAMIYATI .....                                           | 726 |
| Sultonov Baxtiyor Baxodirovich                                                                                       |     |
| UCH FAZALI IKKI CHULG'AMLI MOYLI TRANSFORMATORLARNING ISSIQLIK HISOBINI<br>MODELLASHTIRISH VA TADQIQ QILISH .....    | 731 |
| Taniyev Mirzoxid Xurramovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Omonboyev Dilrux Nuraddin o'g'li                     |     |
| ERKIN IQTISODIY ZONALARNING RIVOJLANISHI BOSQICHLARI .....                                                           | 736 |
| Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.                                                                           |     |
| MOLIYAVIY INKLYUZIYANING IJTIMOIIY TABAQALANISHGA TA'SIRINING NAZARIY<br>JIHATLARI.....                              | 740 |
| Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li                                                                              |     |
| ВОПРОСЫ ТРАНСФОРМАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ<br>К МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА ..... | 746 |
| Муҳидинов Аюббек Нуритдинович                                                                                        |     |
| РОЛЬ КОЛЛЕКТОРНО-ДРЕНАЖНЫХ СИСТЕМ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ .....                                                         | 753 |
| Жангабаев Данияр Мансурович, Хожамуратова Роза Тажимуратовна                                                         |     |
| ASSESSMENT OF ESG INDICES OF PRESTIGIOUS HOTELS IN UZBEKISTAN .....                                                  | 759 |
| Saidova Madina Xayrullo qizi                                                                                         |     |
| FISKAL SIYOSATDA MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY<br>INSTRUMENTLARI .....                    | 765 |
| Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li                                                                             |     |
| TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINING<br>XORIIY TAJRIBASI.....                    | 771 |
| Jabbarov Nodir Umirovich                                                                                             |     |
| AKSIZ SOLINISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TA'SIRI .....                                                                 | 775 |
| Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA UNI<br>RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....          | 781 |
| Shavkat Djumaniyazov                                                                                                 |     |
| EKISHDA CHIGITNI BIR XIL TARQATISH VA OPTIMALLASHTIRISH USULLARI.....                                                | 787 |
| Imomov Shavkat Jaxonovich, Nuritov Ikrom Rajabovich, Babamuradov Anvar Baxtiyorovich                                 |     |
| KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL TIZIMINI<br>JORIY ETISH .....                      | 790 |
| Akbarov Akramjon Ibroximjonovich                                                                                     |     |
| INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTYERIYA HISOB VA AUDITINI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....                        | 793 |
| Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li                                                                                       |     |
| INTELLIGENT SYSTEM FOR MONITORING AND MANAGEMENT OF THE VEGETABLE OIL<br>REFINING PROCESS .....                      | 798 |
| Ortiqov Elbek Elmirza o'g'li                                                                                         |     |
| O'ZBEKISTONDA KREATIV INDUSTRIYA VA EVENT-MENEJMENTNING HUQUQIY-ME'YORIY<br>ASOSLARI.....                            | 806 |
| Shaxabatdin Maxamatdinov Isak uli                                                                                    |     |



|                                                                                                                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| РОЛЬ И РАЗВИТИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ<br>МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ.....                                                                           | 812 |
| Wang Jianhong, Норов Улугбек Ирискулович                                                                                                                                        |     |
| FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA YORDAMCHI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONLARI HISOBI<br>VA YORDAMCHI MAHSULOTLAR TANNARXINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....                       | 816 |
| Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna                                                                                                                                                 |     |
| XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARINI<br>STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI DOIRASIDA SHAKLLANTIRISH VA ULARNING HOLATINI<br>TAHLIL QILISH .....        | 821 |
| Hamroyeva Zuhra Amiral qizi                                                                                                                                                     |     |
| К ВОПРОСУ РАСЧЕТА МОЩНОСТИ, НЕОБХОДИМОЙ ДЛЯ РАЗОГРЕВА КРОМОК ТРУБНОЙ<br>ЗАГОТОВКИ ДО ТЕМПЕРАТУРЫ СВАРКИ .....                                                                   | 825 |
| Заиркулов Элёр Ёкубжон ўғли                                                                                                                                                     |     |
| TEKNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARI .....                                                                                                      | 830 |
| Bekishev Allabergen Yergashevich, Hamadulloyev Diyorbek Hasanboy o'g'li                                                                                                         |     |
| ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL AND GOVERNANCE) TAMOYILLARINING IQTISODIY<br>RIVOJLANISH VA KORPORATIV FAOLIYATGA TA'SIRI: MAKRO VA MIKRO DARAJADAGI<br>TAHLIL .....                 | 834 |
| Murtozayev Sardorbek Abdijalil o'g'li                                                                                                                                           |     |
| TESTING THE STATISTICAL SIGNIFICANCE OF DYNAMIC MODELS IN ECONOMICS .....                                                                                                       | 838 |
| Muradov Rustamjon Sobitkhonovich                                                                                                                                                |     |
| REAL IQTISODIY DAVRLAR NAZARIYASI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TADQIQOTLARDA<br>FOYDALANISH.....                                                                                     | 843 |
| Rustamov Narzillo Istamovich                                                                                                                                                    |     |
| РАСЧЕТ РАСТЯЖЕНИЯ ДРЕВЕСИНЫ И ДЕРЕВЯННЫХ КОНСТРУКЦИЙ ИЗ МЕСТНЫХ<br>ДРЕВЕСНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПОД ДИНАМИЧЕСКИМИ НАГРУЗКАМИ.....                                                       | 848 |
| Юнусалиев Эльмурод Мухаммадьякубович, Ташпулатов Илхомжон Бахтиёрович                                                                                                           |     |
| ЦИФРОВИЗАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО<br>ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ФОНДОВОГО РЫНКА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ<br>И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА ..... | 854 |
| Евгений Юрьевич Шек                                                                                                                                                             |     |
| ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ И<br>ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....                                                           | 860 |
| Шодмонов Қобилжон Қахрамон ўғли                                                                                                                                                 |     |
| AGRAR IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK<br>ASOSLARI.....                                                                                         | 870 |
| Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi, Ibrohimova Muazzam Muhammadjon qizi                                                                                                        |     |
| XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI<br>FOYDALANISH VA BU BORADAGI MUAMMOLAR .....                                                                | 873 |
| Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich                                                                                                                                             |     |
| ДАТЧИКИ ИНТЕРНЕТА ВЕЩЕЙ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЛЯ МОНИТОРИНГА ТЕПЛИЧНЫХ<br>КОМПЛЕКСОВ .....                                                                                        | 878 |
| Самадов Эльёр Эркинович                                                                                                                                                         |     |
| МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ ЭКСКАВАТОРНО-АВТОМОБИЛЬНОГО КОМПЛЕКСА<br>КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ НА ОТКРЫТЫХ ГОРНЫХ<br>РАБОТАХ .....                                  | 884 |
| Аннакулов Тулкин Жовбекович, Нормонов Шамсиддин Нураддинович                                                                                                                    |     |
| ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ<br>И ПРОИЗВОДСТВАМИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ .....                                                              | 892 |
| Гулямов Шухрат Манапович                                                                                                                                                        |     |





|                                                                                                                          |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR<br>HISOBINI YURITISH .....                   | 896 |
| <i>Xonimqulov Islom Ergash o'g'li</i>                                                                                    |     |
| XIZMAT KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MODDIY-TEXNIKA<br>RESURLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ..... | 901 |
| <i>Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich</i>                                                                            |     |
| THE HIDE AND SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN .....                                                                          | 905 |
| <i>Koshanov Abdimurat Azat uli, Abdimuratova Altingul Kalbayevna</i>                                                     |     |
| SHAHAR AGLOMERATSIYALARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....                                                      | 910 |
| <i>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</i>                                                                              |     |
| MOL-MULK SOLIG'I HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                    | 914 |
| <i>Sh.M.Ergashev</i>                                                                                                     |     |
| HUDUDLARDA QURILISH OBYEKTLARINI QURILISH MATERIALLARI BILAN TA'MINLASH<br>SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....                 | 918 |
| <i>Najimov Iskander Perdebayevich</i>                                                                                    |     |
| TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING<br>BOSQICHLARI.....                              | 922 |
| <i>Tajekeev Ziynatdin Kobeyzinovich</i>                                                                                  |     |



# TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILIY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING BOSQICHLARI

**Tajekeev Ziynatdin Kobeyzinovich**

Qoraqalpoq davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası dosenti, i.f.f.d. (PhD)

ORCID: 0009-0009-3995-4753

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tovar-moddiy zaxiralar auditini o'tkazishda tahliliy amallarni qo'llash xususiyatlari va bosqichlari ochib berilgan. Xususan, tovar-moddiy zaxiralar auditini o'tkazishda vertikal tahlil usulini qo'llash va tahliliy amallarni qo'llash bosqichlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tovar-moddiy zaxiralar, tahliliy amallar, vertikal tahlil, mohiyatan tekshiruv, audit, muhimlik, xalqaro audit standartlari (XAS).

**Abstract.** This article describes the specifics and stages of applying analytical procedures when conducting an inventory audit. Specifically, it provides recommendations for using the vertical analysis method and the stages of applying analytical procedures when conducting an inventory.

**Keywords:** inventory items, analytical procedures, vertical analysis, substantive testing, audit, materiality, international auditing standards (ISA).

**Аннотация.** В данной статье описываются особенности и этапы применения аналитических процедур при проведении аудита ТМЦ. В частности, разработаны рекомендации по использованию метода вертикального анализа и этапов применения аналитических процедур при проведении инвентаризации.

**Ключевые слова:** товарно материальные ценности, аналитические процедуры, вертикальный анализ, проверка по существу, аудит, существенность, международные стандарты аудита (МСА).

## KIRISH

Tovar-moddiy zaxiralar ko'pgina korxonalarda mavjud aktivlar hisoblanib, balansda sezilarli qoldiqqa ega (jami aktivlardagi ulushi) yoki juda katta aylanmaga ega bo'ladi. Bu, xususan, ishlab chiqarish yoki savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar profiliga xosdir. Tovar-moddiy zaxiralar deganda oddiy ish jarayonida saqlanadigan sotish uchun mo'ljallangan yoki mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladigan, yoxud sotuvga qo'yiladigan xizmatlar yoki tovarlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan moddiy mulk obyektlari tushuniladi [1]. 2-son "Zaxiralar" nomli BHXSga ko'ra, TMZlar tarkibiga odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan, bunday sotish uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan yoki ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko'rsatilishida ishlatilishi ko'zlangan xom ashyo va materiallar ko'rinishidagi aktivlar kirishi ko'rsatilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

TMZlar auditi bo'yicha mamlakatimizda va xorijda ko'pgina tadqiqotlar o'tkazilgan. Ularga nazar solar ekanmiz, umumiy yondashuv kuzatiladi. Asosan, moliyaviy hisobotlardagi TMZlar bo'yicha ko'rsatkichlarning haqqoniyligini baholash, firibgarlik va o'g'irliklarni aniqlash singari ta'riflarga duch kelamiz. Quyida mahalliy va xorijiy olimlarning TMZlar auditi bo'yicha bergan ta'riflarini keltiramiz (1-jadval).



## 1-javdal. TMZlar audit bo'yicha ta'riflar

| № | Ta'rif                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Mualliflar                                                      |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
| 1 | Tovar-moddiy zahiralarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning maqsadi - ularning saqlanishi, tejamliligi va oqilona ishlatilishi, hisobga olishning to'g'ri tashkil etilishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, hisobot ko'rsatkichlarining ishonchligini va tovar-moddiy zahiralarni bog'liq muomalalar hisobi va soliqqa tortish uslubining O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash lozim[2].                                                                                                                                                                                                                                          | Dusmuratov R. D.                                                |
| 2 | Tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya balansida katta salmoqqa ega bo'ladi. Shu bois tovar-moddiy zaxiralarni audit murakkab jarayon hisoblanadi hamda aynan tovar-moddiy zaxiralarni bog'liq operatsiyalar fribgarlikka moyil bo'lgani uchun auditorlik tekshiruvlarida tovar - moddiy zaxiralarning jismoniy holatini aniqlashga qaratish lozim[3].                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | Cristina Iovu                                                   |
| 3 | Tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq operatsiyalarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini hamda moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirilganligini auditdan o'tkazishda sub'ektga tegishli bo'lgan tovar-moddiy zaxiralari shu jumladan, yo'ldagi va qayta ishlashga berilgan, ishlanadigan, qayta ishlanadigan, ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik maqsadlari uchun ishlatiladigan mehnat buyumlari, xom-ashyo va materiallar, aylanma mablag'larning tarkibiga kiritilgan mehnat buyumlarining tarkibi, miqdori, harakati, ularni tayyorlash, sotib olish, qayta baholash jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishning tartib va qoidalarini ham birgalikda tekshirish ahamiyatlidir[4]. | Alimxanova N. A.                                                |
| 4 | Tovar-moddiy zaxiralarni auditning maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ekt tasarrufida bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy holatiga baho berish hamda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun hisobning mazkur ob'ekti bo'yicha haqqoniy axborotni shakllantirish hisoblanadi[5].                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | M. Hayitboev                                                    |
| 5 | Moddiy javobgar shaxslar o'zgarganda (shuningdek ular kasal bo'lgan, ta'tilga chiqqan davrda) tovar-moddiy zaxiralarning boshqa shaxs javobgarligiga o'z vaqtida va to'g'ri belgilanganligi hamda bunda aniqlangan tafovutlar buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilganligi korxona buxgalteriyasida tekshirilishi zarur. Bu esa keyinchalik tovar-moddiy zaxiralarni kamomadi aniqlanganda, moddiy javobgar shaxslar o'zlarini oqlash uchun shu holatni asosiy sabab qilib ko'rsatishlariga asos bo'ladi[6].                                                                                                                                                                                       | B.O'.Hamdamov                                                   |
| 6 | Tashkilotning daromadlari, xarajatlari va moliyaviy natijalari ko'rsatkichlarining asosligini belgilaydigan tovar-moddiy zaxiralarni bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash audit sifatiga yuqori talablarni belgilaydi[7].                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Ter-Grigor'yants A. A.,<br>Kaminskaya Ye. Yu.,<br>Jarikov M. P. |
| 7 | TMZ auditining maqsadi tovar-moddiy zaxiralarni bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning moliyaviy hisobotda aks ettirilishining ishonchligi va to'liqligi to'g'risida fikr bildirishdir[8].                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | X. Kisimov,<br>L. Yugay,<br>A. Xashimova,<br>B. Pardaev         |

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqorida keltirib o'tilgan mahalliy hamda xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan biznes sub'yektlarida tovar-moddiy zaxiralarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning muhimligi, fribgarlik va o'g'irliklarga moyil obyekt sifatida qaralishi alohida ta'kidlanadi. Lekin ta'riflardan shuni xulosa qilish mumkinki, ularda TMZ auditini o'tkazish bo'yicha umumiy yondashuv mavjudligini kuzatish mumkin. Shu boisdan ham TMZlarni auditdan o'tkazishda mehnat xarajatlari va vaqt sarfini maqbullashtirish maqsadida 520-sonli AXS "Tahliliy amallar"ni dastlabki o'rganishda, rejalashtirish va keyingi bosqichlarda qo'llash maqsadga muvofiq. TMZ auditida dastlabki tahliliy amallar o'tkazish chog'ida xato yoki fribgarliklarni aniqlanmasa, auditor keyingi batafsil tekshirishlarda ishchi muhimlik darajasini kattaroq summada olgan holda audit ishiga sarflanadigan vaqtni kamaytirishi va audit tekshiruv strategiyasida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirgan holda boshqa obyektlarga e'tiborni kuchaytirishi mumkin.

TMZ auditini o'tkazishda audit kutilmasini ishlab chiqish zarur. Kutilmani ishlab chiqishda korxona biznes-rejasi yoki korxona faoliyat olib borayotgan tarmoq ko'rsatkichlari o'rtachasi yoxud korxonaning kamida 3–4 yillik ko'rsatkichlari o'rtachasi olinishi mumkin. Bu yerda audit kutilmasi deganda TMZ schyotining retrospektiv ma'lumotlar asosida yoki tarmoq korxonalari o'rtachasi hisobida olingan qiymat nazarda tutilmoqda. Farqlanish (og'ishish) joylashtirilgan muhim deb topilganda mijoz rahbariyatidan buning sabablarini so'rash kerak. Berilgan tushuntirish va izohlar dalillar bilan tasdiqlansa, TMZ bo'yicha hisob qiymati to'g'ri deb baholanadi.

TMZlarni auditorlik tekshiruvini dastlabki o'rganishda va rejalashtirishda tahliliy amallarni qo'llash auditorlik amallariga sarflanadigan mehnat sarfining kamayishiga olib keladi. TMZlarda tahliliy amallarni qo'llashda moliyaviy hisobot shakllari (balans 150, 160, 170, 180-satrlar, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda sof tushum (010) va tannarx bo'yicha xarajatlar (020)), bosh kitob, korxonada o'tkazilgan o'tgan davr tekshirish natijalari, TMZlarni yetkazib berish shartnomalari, moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar va boshqa axborot manbalari qo'llanilishi mumkin.

Tahliliy amallarining birinchi bosqichida auditor kutilmasini (prognozni, o'rtacha tarmoq ko'rsatkichini) ishlab chiqishda (1-bosqich) taqqoslash, soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzish (vertikal tahlil), koeffitsientlar tahlili va trend tahlili usullarini qo'llash auditor kutilmalarini tekshirib ko'rishga imkon beradi. TMZlarni tahliliy amallar yordamida o'rganishda korxonaning qator yillar bo'yicha ko'rsatkichlari asosida o'rtacha ko'rsatkich taqqoslash uchun kutilma sifatida olinadi. Shuningdek, kutilma sifatida alohida hollarda, agar auditorlik kompaniyasida yoki statistik to'plamlarda tarmoqda faoliyat olib borayotgan ko'p sonli korxonalarning ko'rsatkichlari mavjud bo'lsa, ularni ham qo'llash mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda iqtisodiyotning inflyatsion holati TMZlarni trend tahlilini o'tkazishga monelik qiladi. Shunki ishlab chiqarish, xom ashyo va sotish narxlarining yildan yilga oshib borishi narxlarning yoki xarajatlarning mutadil qo'shimcha omillarsiz o'sish sur'atlari bilan ta'minlanmaydi. Shu boisdan TMZlarda kuzatilayotgan dinamika aldamchi tasavvur uyg'otishi mumkin. Shu boisdan, TMZlarni tahliliy amallar yordamida tekshirishda ko'proq koeffitsientlar tahlili yordamida tekshirish korxonadagi mavjud holatni yuzaga chiqarishga olib keladi. Shuningdek, TMZlarni tahliliy amallar yordamida tekshirishda vertikal tahlil ham ishlatilishi mumkin, negaki u orqali hisobotdagi TMZlarning tarkibiy salmog'i muayyan bir davr uchun tahlil qilinadi. Ularni qator yillar davomida aniqlab, davrlar o'rtasida taqqoslash o'tkazilsa, mavjud tendensiyalarni kuzatish mumkin bo'ladi. Biz quyida "ABS" korxonasining TMZlari auditini tahliliy amallarning vertikal tahlil usuli yordamida o'tkazamiz (2-jadval).

2-jadval. "ABS" MChJining TMZlarini vertikal tahlili<sup>1</sup>

| №              | Ko'rsatkichlar                                             | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023 y. | 2024 y. |
|----------------|------------------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| 1              | Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600), %    | 11,81   | 13,35   | 22,22   | 49,29   | 38,81   |
| 2              | Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700), % | 2,10    | 2,56    | 5,69    | 0,06    | -       |
| 3              | Tayyor mahsulot (2810), %                                  | 9,62    | 2,21    | 5,27    | 14,73   | 7,88    |
| 4              | Tovarlar (2910-2980), %                                    | 2,00    | 0,26    | 0,18    | 2,69    | 1,58    |
| 5              | Boshqalari, %                                              | 74,47   | 81,62   | 66,65   | 33,23   | 51,73   |
| <b>Jami, %</b> |                                                            | 100     | 100     | 100     | 100     | 100     |

2-jadval ma'lumotlariga nazar soladigan bo'lsak, ishlab chiqarish zaxiralarning tutgan salmog'i 2020-yilga nisbatan 27%ga ko'paygan. Tugallanmagan ishlab chiqarish esa jamiga nisbatan umuman salmoqqa ega emas, va tayyor mahsulot hajmi jamiga nisbatan 7,88%ni tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonada ishlab chiqarish zaxiralari haddan tashqari ko'payib ketgan. Bunday paytda auditorlar korxonaning moddiy hisoboti holatini, ularning to'g'ri kirimi va sarflanishi bo'yicha mohiyatan o'rganishlar o'tkazishi zarur bo'ladi.

TMZlar bo'yicha auditorlik tekshiruvini to'rtta bosqichga bo'lib qaragan ma'qul bo'ladi. To'rtta bosqichda ham tahliliy amallarning bir nechta usullarini qo'llash mumkin (3-jadval). Tahliliy amallarni qo'llash audit(lar) ning oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Agar korxonada ichki nazorat past saviyada bo'lsa, tahliliy amallar kutilgan samarani bermaydi. Unday paytda auditorlar ko'proq batafsil testlarga (mohiyatan tekshiruvlarga) suyanadi.

1 Muallif tomonidan ishlangan.



3-jadval. TMZlar auditini o'tkazish bosqichlarida tahliliy amallar va batafsil tekshirishlar<sup>2</sup>

| Audit bosqichlari     | Tahliliy amallar turlari                                                                         | Batafsil tekshirishlar                                            | Natija                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|-----------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Dastabki o'rganishlar | vertikal tahlil, koeffitsientlar tahlili                                                         | -                                                                 | TMZlarning mavjudligi, hisobotdagi salmog'i, aylanuvchiligi, aylanish kuni aniqlanadi. Dastlabki farazlar vujudga keladi. Mijozni qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi (yoki aksi). Dastlabki rejalashtirish amalga oshiriladi. Shartnoma tuziladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| Rejalashtirish        | evristik (kreativ) usullar                                                                       | -                                                                 | Moddiy javobgar shaxslar bilan suhbatlar o'tkaziladi, mijozning ichki nazorat muhitiga baho beriladi. Muhimlik va risk aniqlanadi. TMZ bo'yicha mijozda qanday muammolar mavjudligi bo'yicha umumiy farazlar shakllantiradi. Auditning umumiy rejasi (dasturi) ishlab chiqiladi. Auditor kutilmasi aniqlanadi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
| Audit o'tkazish       | Regression tahlil, mantiqiylik sinovi, variatsion tahlili, Benford Qonuni, vaqt seriyasi tahlili | Inventarizatsiya o'tkazish, Mohiyatan tekshiruv, batafsil testlar | Auditorlik dalillar to'planadi, tahliliy amallar yordamida muammoli nuqtalar, davrlar, hujjatlar aniqlanadi. Ular auditor kutilmasi (prognozi) bilan takqoslanadi. Farqlanishlar sabablari mohiyatan tekshiruvlar, schyotlar bo'yicha batafsil tekshiruvlar yordamida aniqlanadi. Ichki nazorat kuchliligi va tahliliy amallar ochib bergan og'ishilarning muhimligidan va riskning darajasiga bog'liq holda, agar past riskli holat mavjud bo'lsa, 40% tahliliy amallar, 30% nazorat testlari va 30% batafsil testlar o'tkaziladi, agar yuqori riskli holat mavjud bo'lsa, 20% tahliliy amallar, 30% nazorat testlari va 50% batafsil testlari nisbatida vaqt sarfi taqsimlanadi. |
| Auditni yakunlash     | Taqqoslash, Mantiqiylik tahlili                                                                  | -                                                                 | Aniqlangan xato va tushurib qoldirishlarga tuzatish kiritilgan so'ng auditorning belgilab ko'ygan umumiy muhimlik ko'rsatkichiga takqoslanadi, TMZ bo'yicha hisobot va hisob ishlariga mantiqiylik jihatdan qarab chiqiladi. Auditorning kutilayotgan qiymati bilan qayd etilgan miqdor o'rtasidagi farqning moliyaviy hisobotlariga ta'sirini baholashdan iborat.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |

TMZlar auditida mohiyatan tahliliy amallar ham qo'llaniladi. Auditorlik amaliyotida mohiyatan tekshiruvlarning turli xil shakllari mavjud bo'lib, ularni qo'llashdan maqsad TMZlar hisobining va mahsulotlar tannarxining mantiqiylikni aniqlashdan iborat. Auditning rejalashtirish bosqichida boshlang'ich tahliliy amallarni qo'llash TMZlar va sotilgan mahsulotlar tannarxi schyotlarida muhim buzib ko'rsatishlar mavjudligi to'g'risida sifatli ma'lumotlar berishi mumkin. Yakuniy tahliliy amallar esa TMZlarni va boshqa unga bog'liq schyotlardagi ortiqcha, eskirgan yoki sekin harakatlanuvchi zaxiralarni umumiy ko'rib chiqishda qo'llash foydali hisoblanadi. Mohiyatan o'tkaziladigan tahliliy amallar TMZlarning baholanishiga doir tasdiqlashlarni tekshirishga imkon beradi. Bunday amallar ustama xarajatlarning noto'g'ri olib borilishi yoki hisobga olinmasligi kabi muammolarni ham aniqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni ta'kidlash kerakki, tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish bir qator sabablarga ko'ra risk darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi:

- mahsulot tannarxini oshirish hamda soliq bazasini kamaytirish maqsadida mavjud bo'lmagan buyurtmalar bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarni hisobdan chiqarish;
- o'g'irlik va fribgarlik riski yuqoriligi;
- tasdiqlovchi hujjatlarning yetishmasligi, TMZning ruxsatsiz hisobdan chiqarilishi va boshqa xatoliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan katta hajmdagi operatsiyalar va birlamchi buxgalteriya hujjatlarining mavjudligi;
- axborotni to'plash va hisobga olish bosqichida amalga oshirilgan operatsiyalarni hisoblash va o'lchashdagi texnik xatolar tufayli tovar-moddiy zaxiralarni hisobdan chiqarish faktlarini buzib ko'rsatish holatlari.

TMZlar ko'pgina biznes sub'yektlarida mavjud bo'lib, ularning auditini to'g'ri tashkil etish zarur. Tranzaksiyalar hajmi va TMZning jismonan harakatlantirish imkoniyati tufayli xarid va to'lov sikli ko'pincha fribgarlik obyekti bo'lish ehtimoli katta bo'ladi.

2 Muallif tomonidan ishlangan.



Ushbu sikldagi firibgarliklarning aksariyati TMZ yoki aktivlarning ortiqcha baholanib, xarajatlarning esa kam baholanishi bilan bog'liq bo'ladi. Ko'plab to'lovga oid firibgarliklar soxta xaridlarni yoki ayrim hollarda xarid agentiga noqonuniy komission to'lovlar berishni o'z ichiga oladi. Xarid va to'lov siklidagi firibgarlik holatlariga quyidagilar kiritish mumkin:

- xodim(lar) tomonidan TMZ o'g'irlanishi;
- TMZ kamomadi, ya'ni jismoniy yo'qotish yoki o'g'irlik tufayli kamomadning vujudga kelishi oqibatida TMZ hajmidagi kamayish;
- xodimlarning o'zlariga to'lovlarni o'tkazish uchun soxta yetkazib beruvchilarni yaratish sxemalaridan foydalanilishi;
- rahbarlarning soxta TMZni qayd etishi yoki mavjud TMZ qiymatini ortiqcha baholashi (masalan, shishirilgan inventarizatsiya sanog'i varaqalari, soxta qabul qilish hujjatlari yoki xarid buyurtmalari yaratish orqali);
- TMZ hisoblariga ularni ko'p qilib ko'rsatish maqsadida soxta tuzatishlar kiritish;
- xarajatlarni aktiv sifatida tasniflash sxemalari (masalan, aslida joriy davr xarajatlari bo'lgan elementlarni noto'g'ri kapitalizatsiya qilish);
- rahbarlarning xizmat safarlari va ko'ngilochar xarajatlarni noto'g'ri tarzda kompaniya xarajati sifatida qayd etishi va h.k.

Xulosa qilib aytganda, TMZlar auditini o'tkazishni boshlashda dastlab tahliliy amallar usullarini qo'llash orqali mijoz korxona rahbariyati tasdiqlashlarining haqqoniyligi bo'yicha dastlabki mulohazalarni shakllantirishga asos yaratiladi. Tahliliy amallar, mohiyatan tekshiruvlar va nazorat testlariga sarflanadigan vaqt sarfi nisbati muhim xatoliklar riski (MXR) katta bo'lganda, TMZ qiymati JIM qiymatiga taqqoslaganda katta bo'lsa, kamroq tahliliy amallar, MXR kichik bo'lsa, ko'proq tahliliy amallarni o'tkazish lozim. Shuningdek, TMZlar auditida tahliliy amallarni qo'llash to'rtta, ya'ni dastlabki o'rganishlar, rejalashtirish, audit o'tkazish va auditni yakunlash bosqichlarida amalga oshirilishi AXSlar talablariga amal qilgan holda sifatli o'tishini va TMZlar auditining to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karla M. Johnstone, Audrey A. Gramling, and Larry E. Rittenberg. Auditing: A Risk-Based Approach to Conducting a Quality Audit, Ninth Edition. USA 2014, 2012 South-Western, Cengage Learning – P 874
2. Dismuratov R. Audit asoslari. Darslik. / -T.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2003. – Б 614.
3. Cristina Iovu. Aspects concerning the internal audit of inventories. // Audit financiar, XV, Nr. 2(146)/2017, - P 276-283 ISSN: 1583-5812; ISSN on-line: 1844-8801
4. Alimxanova N. A. Tovar-moddiy zaxiralar auditida tahliliy amallarni qo'llash // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. -3/2024 may-iyun №00071
5. M.Hayitboyev. Don mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va audit: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2022. 140 b.
6. B.O'.Hamdamov. "Audit iqtisodi" - T.; "Toshkent Moliya instituti" - 2005.
7. Тер-Григорьянц А. А., Каминская Е. Ю., Жариков М. П. Методика аудиторской проверки операций с товарно-материальными ценностями // научно-методический электронный журнал. Концепт. -2015 - №01 (январь). ART 15022/ - URL: <http://e-koncept.ru/2015/15022.htm>.
8. X.Кысымов, Л.Югай, А.Хашимова, Б.Пардаев. Сборник методических указаний по аудиту. Т.: Издательство «infoCOM.UZ», 2009 – С. 304

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)